

PARVIN SHAKIR VA ZULFIYA: MILLIY AN'ANALAR TALQINI

Sharaxmetova Muxlisa Ansariddinovna

(PhD) dotsent

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi*

Toshkent, O'zbekiston

sharaxmetvamuxlisa@gmail.com

Annotatsiya Ayol shoiralarning adabiyotdagi o'rni har bir xalqning ma'naviy hayotida muhim ahamiyatga ega. Urdu adabiyotida Parvin Shakir (1952-1994), o'zbek adabiyotida esa Zulfiya (1915-1996) ayol shoirlar orasida alohida o'rin tutadi. Ular milliy she'riyatda ayol qalbini, uning orzu-umidlari, iztiroblari va muhabbatini ochiq bayon etish orqali yangi adabiy yo'nalishga yo'l ochgan. Asosiy e'tibor turmush tarzi, oilaviy qadriyatlar va milliy an'analarning she'riy ifodasiga qaratilgan. Mazkur maqolada ushbu ikki shoira ijodi qiyosiy tahlil qilinib, ularning she'riyatidagi umumiylik va farqli jihatlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Parvin Shakir, Zulfiya, urdu adabiyoti, o'zbek she'riyati, turmush, oila, milliy an'analar, qiyosiy tahlil.

Аннотация. Роль женщин-поэтесс в литературе имеет большое значение в духовной жизни каждого народа. В пакистанской литературе Парвин Шакир (1952-1994), а в узбекской литературе Зульфия (1915-1996) занимают особое место среди женщин-поэтесс. Выражая душевный мир женщины – её мечты, надежды, страдания и любовь они проложили путь к новому литературному направлению. Основное внимание в их творчестве уделяется поэтическому отражению образа жизни, семейных ценностей и национальных традиций. В данной статье проводится сравнительный анализ творчества этих двух поэтесс, раскрываются общие и отличительные черты их поэзии.

Ключевые слова: Парвин Шакир, Зульфия, литература урду, узбекская поэзия, быт, семья, национальные традиции, сравнительный анализ.

Abstract

The place of female poets in literature holds significant importance in the spiritual life of every nation. In Urdu literature, Parveen Shakir (1952-1994), and in Uzbek literature, Zulfiya (1915-1996), occupy a prominent position among women poets. By openly expressing a woman's inner world – her dreams, hopes, sufferings, and love – they paved the way for a new literary direction. Their poetry primarily focuses on the poetic depiction of lifestyle, family values, and national traditions. This article presents a comparative analysis of the creative work of these two poets, highlighting the similarities and differences in their poetic approaches.

Keywords: Parveen Shakir, Zulfiya, Urdu literature, Uzbek poetry, lifestyle, family, national traditions, comparative analysis.

KIRISH. Adabiyot xalqning ma'naviy hayoti va ma'rifiy taraqqiyotini ifoda etuvchi muhim soha hisoblanadi. Milliy an'analar – har bir xalqning tarixiy tafakkuri, madaniyati va ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Adabiyot esa ana shu an'analarni asrab-avaylash, xalq ongiga singdirish va zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtirishda muhim vositadir.

Ayniqsa, she'riyat orqali xalqning kundalik turmushi, oilaviy an'analari va ma'naviy qadriyatlari obrazli tarzda aks etadi. She'riyat insonning nafaqat ichki hissiyotlarini, balki jamiyat hayoti, oilaviy qadriyatlar va milliy an'analarni ham ifoda etadi. Adabiyotda ayol shoirlar ijodi doimo o'zining nozik his-tuyg'ulari, samimiyligi va hayotiy mazmuni bilan ajralib turgan. Shu jihatdan XX asr urdu she'riyatining yorqin vakili Parvin Shakir hamda o'zbek xalqining sevimli shoirasi, taniqli jamoat arbobi, O'zbekiston xalq shoiri Zulfiya ikki turli madaniyatga mansub bo'lsalar-da, ularni birlashtiruvchi jihat – ayol qalbidagi muhabbat va sadoqatning badiiy ifodasidir. Parvin Shakir va Zulfiya she'rlarida turmush, oila va milliy an'analar masalasi o'ziga xos tarzda talqin etilgan.

TADQIQOTNING USULLARI. Ushbu tadqiqot O'zbekiston xalq shoiri Zulfiya va urdu adabiyotining yorqin vakili Parvin Shakir ijod namunalarini qiyoslab o'rganish va tahlil qilishga asoslangan. Shoirlar ijodini o'rganishda hamda she'riy parchalarni tahlil qilishda qiyosiy-tahlil usuli qo'llaniladi. Bu yondashuv bizga ikki millat ijodkorlarining ijodida o'ziga xos xususiyatlarini, umumiy va farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

NATIJALAR. Zulfiyaxonim Isroilova hayoti va ijodiga nazar tashlasak, shoira 1915 yilda Toshkentda xunarmandlar oilasida tug'ilgan. U o'zbek adabiyotida XX asrning yirik shoirlaridan biri hisoblanadi. Zulfiyaning ilk she'rlari 1930-yillardayoq nashr etilgan. Shoiraning she'riy to'plamlari orasida «Sen qolasan», «Men senga oshiq», «Tabassum», «Shodlik qo'shig'i» kabilari alohida ahamiyatga ega. Zulfiya ijodi asosan sadoqat, sog'inch, insoniylik, vatanparvarlik, ayol qalbining teranligi kabi mavzular bilan ajralib turadi.

Shoira Parvin Shakir XX asr urdu she'riyatida o'zining samimiy, ruhiy kechinmalarga to'la she'rlari bilan alohida nom qozongan. Uning ilk to'plami – خوشبو «Khushbu» 1976 yilda nashr etildi va adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi. Keyinchalik صدبرگ «Sad-barg», خود کلامی «Khud-kalami», انکار «Inkar» kabi to'plamlari chop etildi. Ushbu she'riy kitoblar ماه تمام «Mah-e-Tamam» to'plamida jamlangan.

MUHOKAMA. Zulfiya she'riyatining asosiy mavzulari – muhabbat, sadoqat, Vatan, ona tabiat va ijtimoiy hayotdir. Uning she'rlarida ayol qalbi samimiyat bilan aks etgan, biroq ularda jamiyat qurilishi, ijtimoiy ma'naviyat va Vatanga muhabbat masalalari ham keng o'rin olgan. Zulfiya o'zbek adabiyotida milliy g'oyalarni, ayol qadri va vatanparvarlik ruhini yuksak pog'onaga ko'targan siymolardan biridir. Uning she'rlarida milliy an'analar teran falsafiy va hissiy ifoda topgan. Masalan, oila qadriyatlari – onaga bo'lgan muhabbat, sadoqat, o'zbek xalqining mehmonnavozligi, sadoqati, milliy kiyim-kechak va urf-odatlariga bo'lgan muhabbat Zulfiya qalamida jonli ifoda topadi.

Zulfiya milliy an'analarni zamonaviy ruhda talqin qilar ekan, ayollarni faqat an'analar doirasida emas, balki ijtimoiy hayotda ham faol ko'rishni targ'ib qilgan. Uning she'rlarida milliylik va zamonaviylik uyg'un holda yashaydi. Zulfiyaxonim «O'ylar», «Shalola» kabi she'riy to'plamlari uchun «Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti»ga sazovor bo'lgan. 1968-yilda Hindiston mavzuidagi she'rlari uchun «Javoharla'l Neru» nomidagi xalqaro mukofotga, 1971-yili tinchlik va do'stlikni tarannum etuvchi asarlari hamda taraqqiyparvar Osiyo va Afrika yozuvchilari harakatidagi faol ishtiroki uchun esa, xalqaro «Nilufar» mukofotiga, shuningdek, 1972-yili Bolgariyaning «Kirill va Mefodiy» ordeniga ham sazovor bo'lgan. Atoqli shoira 81 yoshida, 1996 yil avgustida vafot etgan.

Parvin Shakir (1952-1994) hayoti va ijodiga haqida fikr yuritar ekanmiz, shoira 1952-yil 24-noyabrda Pokistonning Karachi shahrida tug'ilgan. Otasining ismi Sayid Soqib Husayn Shakir edi. Onasining ismi Afzal Nissa. Sayid Shakir Husaynning ikkita qizi bor edi, katta qizi Nasrin va kichik qizi Parvin. Uning ikkala qizi ham o'qimishli bo'lgan. Parvin ilk ta'limni Karachidagi Rizvia qizlar maktabida olgan.

Parvinning otasi o'zi shoir bo'lgan, Parvinning opasi Nasrin ham she'r o'qigan. Ammo Parvin erishgan mashhurlikka hech kim erisha olmadi. Parvin yoshligidan she'r yozishni boshlagan. Parvin Shakir she'riyatidagi asosiy mavzular – muhabbat, ayollik, turmush iztiroblari va jamiyatdagi muammolar hisoblanadi. Parvin Shakir o'z she'rlarida ayol ruhiyati, oilaviy munosabatlar, turmush qiyinchiliklari, muhabbat va ijtimoiy adolat mavzularini samimiy va lirik uslubda talqin qildi.

Shoira XX asr urdu she'riyatida o'zining samimiy, ruhiy kechinmalarga to'la she'rlari bilan alohida nom qozongan. Uning ilk to'plami – خوشبو «Khushbu» 1976 yilda nashr etildi va adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi. Keyinchalik صدبرگ «Sad-barg», خود کلامی «Khud-kalami», انکار «Inkar» kabi to'plamlari chop etildi. Ushbu she'riy kitoblar "Mah-e-Tamam" to'plamida jamlangan.

Parvin Shakir o'zining badiiy ijodi va urdu adabiyotidagi xizmatlari uchun qator mukofotlarga sazovor bo'lgan. 1976-yil خوشبو «Khushbu» to'plami uchun – «Adamjee Literary Award», adabiyotdagi xizmatlari uchun «Pakistan Academy of Letters» mukofoti, 1990-yil Pokiston prezidenti tomonidan berilgan «Pride of Performance» yuksak mukofotlari shular jumlasidan. Bu mukofotlar shoiraaning nafaqat milliy adabiyotda, balki butun Sharq adabiy makonida tutgan o'rnini ko'rsatadi.

Parvin Shakir va Zulfiya Isroilova ijodi qiyosiy tahlil uchun muhim ahamiyatga ega. Quyida bu ikki shoiraani ijodiga nazar tashlab, ular ijodidagi o'xshash, farqli hamda umumiy jihatlarini qiyosiy tahlil qilsak:

Zulfiya she'riyatida oila va milliy an'analar. Zulfiya she'rlarida muhabbat, oila va turmush barqarorligi yetakchi mavzu hisoblanadi. U she'rlarida mehr, sadoqat, mehnat va milliy urf-odatlariga sadoqatni ochiq va xalqona ifoda etadi.

Masalan:

Sen ketsang, yurakda so'nadi nur,
Oilam, turmushim – sen bilan chiroyli.

*Men senga ishonganim kabi,
Mehnatim ham baxtimni yoritar.*

Bu misrada oilaviy hayotning ma'naviy tayanchi sifatida muhabbat va mehnat uyg'unligi ko'rinadi.

*Men senga oshiq, sen menga doim,
Turmush qiyinchiliklarini yengarman.
Qo'limda mehnat, dilda mehr,
Ana shu bilan baxt toparman.*

Mazkur to'rtlikda turmush qiyinchiliklariga qarshi kurashish, muhabbat va sadoqat orqali baxtli hayotga intilish g'oyasi aks etgan.

Zulfiya ijodida oila va mehrning muqaddasligi ko'plab she'rlarda yorqin namoyon bo'ladi. Misol keltirsak:

*Ona dillar singari tiniq,
Oyoq osti qilinmas hargiz.
Ul oydinda yorug'lik bor,
Har bir so'zda nur ifodadir.*

Bu misralarda ona timsoli orqali oilaviy mehr va milliy qadriyatlar madh etilgan.

Parvin Shakir she'riyatida oila va milliy an'analar. Parvin Shakir she'rlarida ayolning ichki dunyosi, muhabbat, sadoqat bilan birga turmush iztiroblari ham aks etadi. U ramziy obrazlar orqali oila va kundalik hayot qiyinchiliklarini ifoda qiladi.

Parvin Shakir urdu adabiyotida ayol hissiyotini bevosita, to'g'ri va samimiy bayon qilgan ilk shoiralardan biri hisoblanadi. Uning she'rlarida romantik muhabbat, qalb iztiroblari va ayol sifatidagi shaxsiy kechinmalar asosiy o'rin tutadi. Misol keltirsak:

وہ تو خوش بو ہے ہواؤں میں بکھر جائے گا
مسئلہ پھول کا ہے پھول کدھر جائے گا
ہم تو سمجھے تھے کہ اک زخم ہے بھر جائے گا
کیا خبر تھی کہ رگ جاں میں اتر جائے گا

«Khushbu» to'plamida shoir ayol sevgisini nozik iztirob va samimiyat bilan tasvirlaydi. Unda oshiqona hissiyotlar ichida ayolning or-nomusi va ruhiy qiyinchiliklari ham aks etgan.

Masalan:

وہ تو خوش بو ہے ہواؤں میں بکھر جائے گا

مسئلہ پھول کا ہے پھول کدھر جائے گا

Ushbu misralarning sharhi quyidagicha:

[“Vo to khushbu hai, havaon mein bikhar jaega...”]
"У хушбўйлик каби - ҳавога сингиб кетади..." yoki “U xushbo‘y hid-ku, shamollarga tarqalib ketadi”.

[Masla phul ka hai, phul kidhar jayega..] “Asl gap gulda, gul qayerga ketadi...”

Xushbo‘y hid bu yerda g‘oyalar, shuhrat yoki insonning ta’siri ramzi hisoblanadi. Ular moddiy emas, cheklovlariga bo‘ysunmaydi va tabiiy ravishda o‘z yo‘lini topib, atrofdagilarga yoyiladi.

Gul esa zaif, moddiy va foni mavjudot ramzi. Bu insonning o‘z shaxsi, tanasi va uning cheklangan hayotini ifodalaydi. Gulga parvarish kerak, uning aniq bir manzili yoki taqdiri bo‘lishi lozim, aks holda u so‘lib, yo‘qolib ketadi.

She’ning asosiy g‘oyasi shundaki, insonning moddiy mavjudligi (*gul*) vaqtinchalikdir, uning ishlari, fazilatlari va shaxsiyatining ta’siri (*xushbo‘y hid*) esa uzoq davom etadi va odamlarning qalbida va muhitda abadiy yashaydi. Bu she’r shuni ta’kidlaydiki, jismoniy go‘zallik vaqtinchalik, ammo birovning fe’l-atvori, san’ati va muhabbati abadiydir.

Parvin Shakir she’ritidan yana bir namunani tahlil qilsak.

کچھ تو ہوا بھی سرد تھی کچھ تھا ترا خیال بھی
دل کو خوشی کے ساتھ ساتھ ہوتا رہا ملال بھی

بات وہ آدھی رات کی رات وہ پورے چاند کی
چاند بھی عین چیت کا اس پہ ترا جمال بھی

سب سے نظر بچا کے وہ مجھ کو کچھ ایسے دیکھتا
ایک دفعہ تو رک گئی گردش ماہ و سال بھی

Ushbu misralarning sharhi quyidagicha:

Shoira ushbu she’rida xursandchilik va g‘am, ya’ni shodlik va afsus bir vaqtning o‘zida, yonma-yon his etiladigan holatni tasvirlagan.

کچھ تو ہوا بھی سرد تھی کچھ تھا ترا خیال بھی
دل کو خوشی کے ساتھ ساتھ ہوتا رہا ملال بھی

Mazkur she’ning asosiy g‘oyasi shundaki, ushbu yoqimli muhit va mahbubaning xayoliga qaramay, qalbda bir vaqtning o‘zida ham shodlik, ham bir afsus mavjud edi. Bu holat, ehtimol, bu baxt vaqtinchalik ekanligini, yoki mahbubaning yonida emasligini, yoki bu to‘liq shodlikni qayg‘uga aylantirayotgan qandaydir yetishmovchilik borligini anglatadi.

Adabiy va emotsional tahlilga yuzlansak, shoira ziddiyat go'zalligini "خوشی" [xushi] (shodlik) va "ملال" [malal] (afsus/g'am) so'zlarining bir lahzada yonma-yon kelishida, bu inson hissiyotlarining murakkabligini chiroyli tarzda ifodalaydi. Bu to'liq xotirjamlik bo'lmagan iztirobli holatdir.

Shoira baytdagi muhit va holatni yani, tashqi muhitni (*salqin shamol*) ichki holat (*yor xayoli*) bilan bog'lagan, bu esa to'liq manzara hosil qiladi. Salqin shamol ham, mahbubaning xayoli ham tabiatda o'ziga xos bir yumshoqlik va qayg'uni uyg'otuvchi omillardir. Bu misra tashqi muhitni, ya'ni ob-havo yoqimli, shamol salqin ekanligini tasvirlaydi, bu odatda xotirjamlik va tasalli hissini beradi. Ushbu yoqimli muhitga mahbubaning xayoli ham qo'shilgan, bu holatni yanada chuqurlashtirgan, bu xayolning o'zi shodlik baxsh etuvchi yoki xafa qiluvchi bo'lishidan qat'i nazar.

Bu she'r insonning go'zal lahzalarda ham o'tgan vaqt yoki kelajakdagi ayriliq haqidagi xayollar bilan xafa bo'lishi kabi tabiiy insoniy hissiyotlarni aks ettiradi.

بات وہ آدھی رات کی رات وہ پورے چاند کی
چاند بھی عین چیت کا اس پہ ترا جمال بھی

Bu baytda go'zal manzara tasviri va hissiyotlar nozikligi juda yaxshi tasvirlangan. Shoira g'oyatda romantik va tinch muhitni yaratgan yarim tun, yolg'izlik, sokinlik va chuqur o'ylar vaqti to'lin oyni go'zallik, yorug'lik va romantika ramzi sifatida aynan "chayt oyi" ni (*bu bahorning mart-aprel oylariga to'g'ri keladi, bu paytda oy yog'dusi o'ziga xos jozibali va go'zal ko'rinadi*) tasvirlangan. Bu alohida, nodir lahzani ko'rsatadi.

"Oyning go'zalligi bilan sening jamoling ham..." Shoira aytadiki, bu go'zal va nodir imkoniyatda, ya'ni yarim tunda, to'lin "chayt oyi" yog'dusida, mahbubaning husn-jamoli shu qadar dilbarki, u oyning go'zalligini ham xiralashtiradi yoki bu husnga yanada ko'rk bag'ishlaydi. Bu mahbubaning husn cho'qqisi va uning jozibasining bayonidir.

Bu bayt visol yoki mahbuba yodining shunday holatini ifodalaydiki, u yerda atrof-muhit go'zalligi (*salqin havo, oy yog'dusi*) va mahbuba tasavvuri birgalikda unutilmas manzara va his-tuyg'ularni paydo qiladi. Bu go'zal lahzaning aksidir, u dilda ham xursandchilik, ham shirin bir ayriliqni yoki bu lahzaning o'tib ketishi hissini paydo qiladi.

Parvin Shakir she'rda tabiatning eng go'zal lahzalarini mahbubaning bemisl husn-jamoli bilan bog'lab, o'quvchini o'ziga rom etadigan sehrli va romantik kayfiyatni yarata olgan.

Parvin Shakirning uslubi sodda, ammo chuqurdir, u oddiy so'zlar bilan juda murakkab va nozik his-tuyg'uni ifodalagan, bu esa o'quvchini o'ziga jalb etadi. Xulosa qilib aytganda, bu she'r hissiyotlar uyg'unligi va vaqtinchalik baxt ortida yashiringan g'amning ajoyib namunasi.

O'zbek xalqining sevimli shoirasi Zulfiyaxonim Isroilovanning "Sensiz" she'ri 1945-yilda yozilgan bo'lib, ushbu she'r butun umr o'z yoriga sodiq o'tgan

ayol qalbi navolaridir. Unda yolg'izlik iztirobi va ayollik irodasi o'ziga xos tarzda samimiy ifoda etilgan.

She'r shoiraning turmush o'rtog'i, atoqli shoir Hamid Olimjonning fojiali va bevaqt vafotidan so'ng yozilgan. "Sensiz" she'ri Zulfiya ijodida muhim o'rin tutib, unda sevgan insonining yo'qotishidan chekkan chuqur iztirob, shu bilan birga, hayotga bo'lgan mustahkam iroda va sadoqat aks etadi.

Quyida shoiraning "Sensiz" she'ridan parcha tahlil qilsak:

*Mana, bir umrni yashadim sensiz,
Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib,
Tobuting boshida cho'kkanimda tiz,
Farzandlar ko'tardi qo'limdan tutib.*

*Shundan beri tikman. Har nega qalqon,
Baxtga, bahorga ham, qishga, qayg'uga.
Birov azasida yig'layman qon-qon,
To'yida yayrayman o'xshab ohuga.*

She'rning boshidan oxirigacha lirik qahramonning (Zulfiyaning o'zi) qayg'usi his qilinadi. Ammo bu qayg'u ojizlik belgisi emas, aksincha, ulkan matonat va sabr-toqat timsoli. U hayot sinovlari oldida egilmasligini, farzandlaridan kuch olib, tik turishini ta'kidlaydi.

She'rning asosiy mavzusi – sog'inch, ayriliq azobi va muhabbatning umrboqiy og'rig'i. "Bir umrni yashadim sensiz" satri darhol she'rning umumiy ohangini belgilaydi: yillar davomida davom etgan, ammo unut bo'lmagan muhabbat. "Tobuting boshida cho'kkanimda tiz" – bu nafaqat jismoniy ayriliq, balki o'lim va muhabbatning uzviy bog'liqligini ifodalaydi. "Farzandlar ko'tardi qo'limdan tutib" – muhabbatning davomiyligi, uning avlodlar bilan bog'liqligi, insoniy qadriyatlar meros sifatida o'tishini ko'rsatadi.

Shoira badiiy vositalardan ham mohirona foydalangan. Tobut obrazi – o'lim, ayriliq va umrsizlik ramzi. Bu obraz she'rga dramatik kuch beradi. Qalqon – lirikaning ruhiy holatini ifodalovchi kuchli metafora. Muallif hayotning barcha og'riqlariga, hatto baxtiga ham "qalqon" bilan tik turishga majbur. "Qon-qon yig'layman" – ichki og'riqning cho'qqisi, ruhiy larzani kuchli ifodalagan metafora. She'rning umumiy kayfiyati qayg'uli, ammo unda iroda va barqarorlik ham bor. She'rda muhabbat faqat ikki qalb orasidagi munosabat emas, balki hayot, o'lim va avlodlar bilan bog'langan ulkan insoniy qadriyat sifatida tasvirlanadi.

She'rda shaxsiy fojiadan tashqari umumiy insoniy dard aks etadi: yo'qotish, sabr, yashashga bo'lgan iroda. "Sensiz" she'ridagi sog'inch va barqaror iroda – shoiraning butun ijodiga xos bo'lgan keng insoniylik ruhining davomidir. She'rda ayol qalbining chidamliligi, mehrning yengilmasligi va fojia oldidagi matonati yorqin aks etadi.

"Sensiz" she'ri Zulfiya Isroilovaning nafaqat shaxsiy fojiasi ifodasi, balki o'zbek ayolining mustahkam irodasi, sadoqati va abadiy muhabbatining adabiy yodgorligidir.

U o'quvchiga hayot qiyinchiliklariga qaramay, yashash, ijod qilish va sevgi xotirasiga sodiq qolish kuchini beradi.

Umumiy jihatlar. Parvin Shakirning “کچھ تو ہوا بھی سرد تھی...” [*Kuch to hava bhi sard thi*] va Zulfiyaxonimning “Sensiz” she’rlari orasida bir qancha umumiy jihatlar mavjud bo‘lib, ularning ikkalasi ham ayollar nuqtayi nazaridan yozilgan romantik va hissiy jihatdan chuqur asarlardir. Har ikki shoira she’riyat orqali ayol taqdiri, oila va muhabbat masalalarini asosiy mavzular sifatida talqin qilgan. Parvin Shakir g‘azallarda ayol qalbining iztirob va shodliklarini ifoda etsa, Zulfiya she’rlarida muhabbat, sadoqat va hayot ma’naviy tayanchi sifatida talqin etiladi. Parvin Shakir va Zulfiyaxonim she’rlarida ayol qalbi ifodasi-ayolning ichki hissiyotlari, ruhiy iztiroblari, orzu va umidlari ochiq bayon etilgan.

Parvin Shakir va Zulfiyaxonim she’riyatida turmush va oila mavzusi turli uslublarda yoritilgan. Ularning she’riy uslubi va badiiy yo‘nalishlarida farqlar ham bor.

Ikkala she’rning ham asosiy mavzusi - sevgi, ayriliq va mahubuga intizorlikdir. Parvin Shakir she’rida tashqi muhit (salqin havo) ichki hissiyotlar (yor xayoli, baxt va g‘am) bilan uyg‘unlashsa, Zulfiyaning "Sensiz" she’rida mahbubsiz dunyoning nuqsonli va ma’nosiz ekanligi chuqur qayg‘u bilan ifodalanadi.

Ikkala shoira ham she’rlarida ayol kishining nozik va murakkab hissiyotlarini juda samimiy va ta’sirli tarzda aks ettirgan. Ikkala she’rda ham hissiyotlarni ifodalash uchun tabiat obrazlaridan keng foydalaniladi. Parvin Shakirning “کچھ تو ہوا بھی سرد تھی...” [*Kuch to hava bhi sard thi*] she’rida "salqin havo", "to‘lin oy" kabi obrazlarni qo‘llasa, Zulfiya ham, garchi "Sensiz" she’ri matni aniq keltirilmagan bo‘lsa-da, o‘zbek adabiyoti an‘analariga ko‘ra, tabiat elementlari orqali o‘z hijron dardini ifodalaydi.

Har ikki shoira uchun ham tashqi voqea-hodisalardan ko‘ra qahramonning ichki dunyosi, ruhiy holati va kechinmalari muhimroq hisoblanadi.

Parvin Shakir g‘azalni zamonaviy hissiyotlar bilan boyitgan bo‘lsa, Zulfiyaxonim ham milliy adabiyotning an‘analarini saqlagan holda, o‘z davri uchun ilg‘or bo‘lgan ayollar mavzusini ko‘targan. Parvin Shakir va Zulfiya she’rlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular madaniy va til jihatidan turlicha bo‘lsa-da, ayol qalbi, muhabbat, sadoqat va ruhiy aloqa mavzularini bir xil noziklik bilan yoritadi.

XULOSA. Parvin Shakir va Zulfiya – ikki xalq adabiyotidagi muhim ayol shoiralar bo‘lib, ularning ijodi ayol dunyoqarashi, milliy an‘analar va turmush haqidagi poetik falsafani o‘z ichiga oladi.

1. Ularning lirikasi xalq ruhi, madaniyati va insoniy tuyg‘ularning go‘zal ifodasidir. Ushbu o‘xshashliklar ularni turli zaminlarda yashagan bo‘lsa-da, ruhan yaqin ijodkorlar sifatida namoyon etadi. Parvin Shakir va Zulfiya she’rlarida turmush, oila va milliy an‘analar inson ruhi bilan uyg‘un holda talqin etilgan.

2. Parvin Shakir urdu she’riyatida oila va muhabbatni ramziy ifoda etgan bo‘lsa, Zulfiya o‘zbek she’riyatida milliy urf-odatlar va turmush qadriyatlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri bayon etgan. Parvin Shakir Pokistondagi ayolning ijtimoiy muammolarini ko‘targan bo‘lsa, Zulfiya Sovet davri adabiyotida ijtimoiy-siyosiy mavzularga ham yuzlanishiga to‘g‘ri kelgan.

3. Zulfiya va Parvin Shakir – ikki millat, ikki turli adabiy muhit va tafakkur vakillari bo‘lsa-da, ularning ijodida milliy an‘analarga munosabat muhim o‘rin tutadi.

Zulfiya milliy an'analarni asrab-avaylash va yosh avlod ongiga singdirishga harakat qilsa, Parvin Shakir esa ularni qayta ko'rib chiqish, zamon bilan uyg'unlashtirishni o'rtaga qo'yadi. Har ikki adiba o'z ijodi bilan ayol kamolotini, ma'naviy dunyosi va jamiyatdagi o'rnini yoritib, o'z xalqi madaniyatiga munosib hissa qo'shgan.

Ularning asarlarini o'rganish turli xalqlarning ma'naviy hayotini anglashda, oilaviy qadriyatlar va milliy an'analarning adabiyotdagi talqinini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shakir, P. (1980). *Khushbu* [Poetry collection]. Lahore: Sang-e-Meel Publications.
2. Zulfiya. (1957). *Sensiz. She'rlar to'plami*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
3. Karimova, D. (2020). *Zulfiya she'riyatida ayol qalbi timsollari*. O'zbek adabiyoti jurnali, 3(2), 45–52.
4. Rahman, S. (2019). Symbolism and feminine identity in Parveen Shakir's poetry. *Journal of South Asian Literature*, 7(1), 101–110.
5. Yusupova, N. (2022). Ayol lirikasida sog'inch motivi: Zulfiya misolida. *Toshkent davlat universiteti ilmiy to'plami*, 5(4), 112–118.
6. Shakir, P. (1976). *Khushbu*. Oxford University Press.
7. Shakir, P. (1980). *Sad-barg*.
8. Zulfiya. (1978). *Sen qolasan* (Ты останешься). G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
9. Zulfiya. (1980). *Tanlangan asarlar* (Избранные произведения). G'afur G'ulom nashriyoti.
10. Qosimov, B. (2005). *XX asr o'zbek adabiyoti tarixi* (История узбекской литературы XX века).
11. Ahmad, A. (2002). *Modern Urdu poetry: A critical analysis*. Sang-e-Meel Publications.
12. Abdullayeva, Sh. (2002). *Zulfiya poeziyasida ayol obrazi* (Образ женщины в поэзии Зульфии). Fan.
13. Prof. Khwaja Ekramuddin, Dr. Muhayya Abdurahmonova (2019) *Urdu shaeri*. Brown Books. New Delhi.
14. Khan, R. (2015). *Feminism in Parveen Shakir's poetry*. *Journal of South Asian Literature*.
15. www.parveenshakir.com
16. www.ziyouz.com
17. www.literaturepakistan.com3
18. <https://tafakkur.net/sensiz/zulfiya.uz>

